



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

**NAVOIY RUBOIYLARINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI  
TADQIQI  
RESEARCH ON THE GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF  
NAVOI'S RUBAIYAT**

**Maftuna Mamatova Nabi qizi**

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi I bosqich magistranti

E-mail: [maftunamamatova010@gmail.com](mailto:maftunamamatova010@gmail.com)

ORCID: 0009-0001-5107-4646

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v/b., f.f.d. N.S.G‘ulomova taqrizi ostida

**DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./XTMD4460](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./XTMD4460)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ruboiylarining grammatik xususiyatlari lingvistik tahlil asosida o‘rganiladi. Ruboiylarda qo‘llanilgan morfologik va sintaktik birliklar, fe‘l shakllari, so‘z tartibi hamda grammatik ixchamlik masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Navoiy poetik tilining o‘ziga xos grammatik qurilishini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ruboiy janrining ixcham shaklida chuqur falsafiy mazmunni ifodalashda grammatik vositalarning tutgan o‘rni yoritib beriladi. Navoiyning nafaqat shoirlik mahorati beqiyos, balki so‘z qo‘llash san‘ati tahsinga sazovor. Alisher Navoiy turkiy tillarda ijod qilgan mumtoz adabiyotning eng yirik namoyandalardan biri bo‘lib, uning she‘riy merosi chig‘atoy adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Shoir ijodining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan ruboiylar mazmuniy teranlik bilan bir qatorda grammatik jihatdan ham puxta va mukammal tuzilishi bilan ajralib turadi. Ruboiy janrining ixcham shakli Navoiydan grammatik vositalardan nihoyatda tejamkor va maqsadga muvofiq foydalanishni talab etgan.

**Kalit so‘zlar:** Ruboiy, grammatik xususiyatlar, morfologik, sintaktik birliklar.

**Annotation.** This article examines the grammatical features of Alisher Navoi’s rubaiyat on the basis of linguistic analysis. The study analyzes the morphological and syntactic units employed in the rubaiyat, including verb forms, word order, and issues of grammatical compactness. The results of the research contribute to identifying the distinctive grammatical structure of Navoi’s poetic language. In addition, the article highlights the role of grammatical devices in conveying profound philosophical meaning within the concise form of the rubai genre. Navoi’s mastery is remarkable not only in poetic creativity but also in the art of precise and expressive word usage. Alisher Navoi is regarded as one of the greatest representatives of classical literature written in Turkic languages, and his rich poetic heritage played a

*significant role in the formation and development of the Chagatai literary language. The rubaiyat, which constitute an important component of the poet's creative legacy, are distinguished not only by their semantic depth but also by their grammatically refined and well-structured form. The concise nature of the rubai genre required Navoi to employ grammatical means with exceptional economy and functional precision.*

**Key words:** *Rubai, grammatical features, morphological units, syntactic units.*

So'nggi yillarda mumtoz adabiy merosni zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, badiiy matnlarni grammatik jihatdan tahlil qilish muallifning individual uslubini, til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, Alisher Navoiy ruboiylari grammatik jihatdan ixcham, lekin mazmunan serqirra bo'lgan poetik matnlar sifatida alohida ilmiy e'tiborga loyiqdir.

Ruboiy janri qisqa hajmda chuqur ma'no ifodalashni talab etuvchi she'riy shakl bo'lib, ushbu janrda grammatik vositalarning tanlanishi va joylanishi badiiy ifodaning samaradorligini belgilaydi. Alisher Navoiy ruboiylarida morfologik va sintaktik birliklar poetik maqsadga bo'ysundirilgan holda qo'llanib, shoirning so'z qo'llashdagi yuksak mahoratini namoyon etadi. Shu bois Navoiy ruboiylarining grammatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Yurtimizda Navoiy ijodiga bag'ishlangan Mualliflik korpusi yaratildi [Abjalova, G'ulomova, 2024: 5]. Mazkur korpusda ijodkor g'azallari semantik teglandi. Yurtimizda Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan mualliflik korpusi yaratilgan bo'lib, mazkur korpusda ijodkorning g'azallari bilan bir qatorda ruboiylari ham lingvistik jihatdan qayta ishlanmoqda. Xususan, ruboiy matnlaridagi so'z birliklarining grammatik xususiyatlarini aniqlash, morfologik shakllar, fe'l zamonlari va sintaktik qurilmalarni belgilash orqali shoirning grammatik ifoda vositalaridan foydalanish mahoratini korpus asosida tahlil qilish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Bu esa Navoiy ruboiylarida qo'llangan grammatik birliklarning nafaqat shakliy, balki mazmuniy va poetik ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Navoiy birgina “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga 133 ta ruboiy keltirilgan. Ruboiylarning ma'no ko'lami, o'quvchi yoshining ahamiyati, mavzu xilma-xilligi, grammatik va morfologik jihatlari o'quvchini o'ziga tortadi. Navoiy ruboiylarida mehr, muhabbat, ilohiy ishq, ota-onaga hurmat, vatanga muhabbat kabi mavzular yetakchilik qiladi.

Ruboiylar mazmunan rang-barangligi, ma'no ko'laminin kengligi hamda badiiy va lingvistik jihatdan puxta ishlangani bilan alohida ajralib turadi. Ruboiylar nafaqat yetuk adabiy didga ega o'quvchilar, balki turli yoshdagi



kitobxonlar uchun ham tushunarli va ta'sirchan bo'lib, o'quvchini fikrlashga, mushohada yuritishga undaydi. Navoiy ruboiylarida hayotiy va falsafiy masalalar ixcham, ammo chuqur shaklda ifodalanadi. Ularning mavzu doirasi nihoyatda keng bo'lib, mehr-oqibat, insoniy muhabbat, ilohiy ishq, ota-onaga hurmat, vatanga muhabbat, inson kamoloti, axloqiy poklik va ma'naviy yetuklik kabi masalalar yetakchi o'rinni egallaydi. Shoir ushbu mavzular orqali insonni ezgulikka, halollikka va komillikka da'vat etadi. Qolaversa, grammatik va morfologik jihatdan qaralganda, Navoiy ruboiylari yuqori darajadagi ixchamlik va aniqlik bilan ajralib turadi. Shoir kam sonli grammatik vositalar yordamida keng mazmuni ifodalashga erishgan. Fe'l shakllarining maqsadga muvofiq tanlanishi, so'z tartibining poetik vazifaga bo'ysundirilishi hamda morfologik shakllarning semantik yuklamasi ruboiylarning ta'sirchanligini oshiradi. Bu jihatlar ruboiylarni nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik va korpus lingvistikasi nuqtayi nazaridan ham qimmatli tadqiqot manbaiga aylantiradi.

Bir aybg'a garchi xalq qilg'ay mansub,  
Faqr ahlidin iztirob emastur mahsub.  
Sidq ersa xud etmak kerak o'z fe'lini xo'b,  
Kisb ersa, malomat dag'i bordur matlub.

Ushbu ruboiyda ruboiyda – 4 ta misradan har birida mustaqil yoki bog'langan gap bo'lagi mavjud. Misralar shartli bog'lovchi “ersa, garchi” vositasida bir-biriga bog'langan. Gaplar odatda sodda yoki aralash predikatli gaplar: fe'l + egalik yoki sifat bilan boyitilgan. Misralarda fe'l markaziy vazifani bajaradi, masalan: *qilg'ay, emastur, etmak, bordur*. Sintaktik ixchamlik: ruboiyda ko'p hollarda yordamchi so'zlar va qisqa predikatlar (gapning asosiy bo'lagi) ishlatilgan, bu poetik ixchamlikni ta'minlaydi. Mazkur ruboiyning grammatik xususiyatlari ham mavjud.

Fe'l shakllari: shart zamon (*ersa*), hozirgi zamon inkor (*emastur*), infinitiv (*etmak*), fe'l (*bordur*). So'z tartibda predikat ko'pincha oxirga qo'yilgan, bu poetik urg'u yaratadi [Abjalova, G'ulomova 2024: 26]. Ko'p grammatik ma'no qisqa shaklda ifodalangan (*ersa, emastur, bordur*). Semantik grammatik bog'lanish: shart va sabab-oqibat munosabatini ifodalash uchun shart bog'lovchi va fe'l shakllari qo'llanilgan. Metafora va ramzlar bilan bog'liq so'zlar (*aybg'a, sidq, kizb, malomat*) morfologik va sintaktik jihatdan ixcham tuziladi, bu ruboiyning badiiy boyligini oshiradi. Qolaversa, Navoiy kelishik shakllaridan ham unumli foydalangan (-g'a) jo'nalish, (-dan) chiqish, (-ni) tushum.

Alisher Navoiy ruboiylarida sinonimlardan ham unumli foydalangan. Masalan, *osmon* so'zining *falak, ko'k, aflok*; *sevgi* so'zining *mehr, ishq*; *yor* so'zining *yor, jonon*; *yo'qlik* ma'nosida *yoqluq, xalo*; kabi, shuningdek, bir xil semantik-leksik guruhlarga oid ranglar ham keltirilgan: *sarg'aribon* so'zi orqali sariq rang; *siymob* [Фозилов, 1984: 76], kumushrang, yaltiroq oq. Ruboiylarda ramziy ma'nodagi so'zlar ham mavjud. Jumladan, “Siymob qilur erdi taharruk



bila tob” asarning 14-ruboiysidan olingan ushbu misrada “siymob” so‘zi bilan suvning kumushdek yaltiradi tasvirlangan.

Ruboiylarda jidlik mavmuni kasb etuvchi jumlar ham ko‘p. Masalan, yaxshi-yomon, zisht-xo‘b (xunuk-chiroyli), tiriklik-o‘lmak, rost-yolg‘on, yashirish- ko‘rsatish, osmon usti-yerusti. Navoiy ruboiylarida qo‘llanilgan ba‘zi so‘zlar leksik-semantik guruhlarni tashkil etib keladi [To‘rayeva, 2021: 16]. Turkiy adabiyot namoyandalaridan hech biri bu janrdan Navoiy darajasida samarali foydalana olmagan. Navoiy nafaqat turkiy tilda, balki fors tilida ham go‘zal, ruboiylar yaratgan. Shoirning fors tilidagi ruboiylari asosan “Devoni Foni” dan o‘rin olgan bo‘lib, quyida ularning ayrimlarini g‘oyaviy va badiiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz:

Har on, ki az hama ashkhosi purmashaqqati dahr,

Buridu sokht vatan dar harimi tanhoi

(*Ya'ni*: nasabda o‘xshashlik bo‘lmasa ham,

Yagonalik va tanholikda inson o‘z vatanini yaratadi.)

Ushbu ruboiy chuqur falsafiy va ma‘naviy mazmunga ega bo‘lib, unda inson va uning mustaqilligi, yolg‘izlik orqali o‘z “men”ini anglash masalasi aks etadi. Ruboiyda insonning hayotdagi mustaqilligi, tanholik orqali erkinlikka erishishi va o‘z yo‘lini topish g‘oyasi ilgari suriladi. Shuningdek, eng og‘ir sharoitlarda ham inson o‘ziga “vatan” yarata olishi ta‘kidlanadi. Bu esa mashaqqat orqali kamolotga erishish g‘oyasini ilgari suradi.

Ruboiyda buyuklikka nasab (kelib chiqish, ajdodlar) orqali emas, balki shaxsiy yagonalik va individuallik orqali erishish mumkinligi uqtiriladi. Bu hol, ayniqsa, falsafiy nuqtayi nazardan inson va uning betakrorligi masalasini ko‘taradi. Ruboiyda metafora, o‘xshatish va tazod kabi badiiy vositalardan mohirona foydalanilgan. Qolaversa, inson dunyoviy tashvishlar va noto‘g‘ri tushunchalardan himoyalangan bo‘lishi lozim. Quyidagi misralarda tashvishlardan xalos bo‘lishning yo‘li sifatida tanholik va o‘zini asrash g‘oyasi ilgari suriladi. Bunga dalil sifatida “**magas**”, ya‘ni **pashsha** obrazi keltiriladi. Shoir ilgari surayotgan asosiy g‘oya quyidagicha: “*Pashshaning g‘uvillashidan uzoq bo‘l, chunki u senga foyda bermaydi, faqat zarar yetkazadi.*”

Pashsha obrazining tanlanishi bejiz emas. Bu obraz shovqin-suronli, betinch, tashqi jilosi bilan odamni o‘ziga tortadigan, biroq aslida og‘riq yetkazuvchi, chaqadigan va bezovta qiladigan kishilar timsolidir. Bunday qarashlar tasavvuf adabiyotiga xos bo‘lib, unda dunyo tashvishlaridan chekinish va ruhiy osoyishtalikka erishish markaziy g‘oya hisoblanadi. Mazkur ruboiy fors (tojik) tilida yozilgan bo‘lib, murakkab gap tuzilishiga ega. Birinchi misra ergash gap, ikkinchi misra esa asosiy gap vazifasini bajaradi. Gap shart-natija munosabatiga qurilgan.

Mazkur ruboiy fors tilida yozilgan bo‘lib, grammatik jihatdan murakkab gap tuzilishiga ega. Birinchi misra ergash gap vazifasini bajarib, ikkinchi misrada berilgan asosiy fikrga shart–hol ma‘nosida bog‘langan. Ruboiy

umumlashtiruvchi subyektga ega bo'lib, ega bevosita ifodalanmagan, bu holat mumtoz fors she'riyatiga xos bo'lgan falsafiy umumlashtirishni kuchaytiradi. Birinchi misrada “Har on, ki” birikmasi orqali umumiy ma'nodagi shaxs – “har bir inson” tushunchasi ifodalanadi. Bu yerda “har” aniqlovchi olmosh, “on” esa ot bo'lib, birgalikda umumlashtiruvchi ega vazifasini bajaradi. “Ki” bog'lovchisi ergash gapni asosiy gap bilan bog'laydi. “Az hama ashkxosi purmashaqqati dahr” birikmasi grammatik jihatdan murakkab izofat tizimi asosida qurilgan. Unda “az” ko'makchisi chiqish kelishigi ma'nosini beradi, “hama” miqdor olmoshi, “ashkxos” ko'plikdagi ot bo'lib, “pur” old qo'shimchasi orqali “mashaqqat” so'zi sifatlashgan va “dahr” otiga izofat orqali bog'langan. Ushbu izofat zanjiri “dunyoning mashaqqatga to'la odamlari” degan ma'noni anglatadi.

Ikkinchi misrada asosiy gap ifodalangan bo'lib, unda ikki fe'l ketma-ketlikda qo'llangan: “burid” va “sokht”. “Burid” fe'li “buridan” (uzmoq, ajralmoq) fe'lidan yasilib, o'tgan zamon shaklida kelgan va dunyo odamlari bilan aloqani uzish ma'nosini bildiradi. “Sokht” fe'li esa “sokhtan” (yasamoq, qurmoq) fe'lidan yasilib, ijodiy harakatni anglatadi. Bu ikki fe'l teng bog'lovchi “u” orqali bog'lanib, harakatlarning ketma-ket va mantiqiy bog'liqligini ko'rsatadi. “Vatan” so'zi to'g'ridan-to'g'ri to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

“Dar harimi tanhoiy” birikmasi joy holini bildiradi. Bu yerda “dar” ko'makchisi joy ma'nosini ifodalaydi, “harim” ot bo'lib, “ichki, muqaddas makon” ma'nosini anglatadi va “tanhoiy” otiga izofat orqali bog'langan. Ushbu izofat birikmasi tanholikning ichki va ma'naviy hudud sifatida talqin qilinishini grammatik jihatdan mustahkamlaydi. Umuman olganda, ruboiyning grammatik qurilishi shart – natija munosabatiga asoslangan bo'lib, izofat tizimi, egasiz umumlashtirilgan gap shakli va parallel fe'l konstruksiyalari orqali chuqur falsafiy mazmun ifodalangan. Grammatik tuzilma mazmunni kuchaytirib, insonning dunyoviy muhitdan ajralib, tanholik orqali o'ziga ma'naviy makon – “vatan” yaratishi g'oyasini ta'kidlashga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun leksik birliklarni semantik teglashning ikki yondashuvi. // TATU ilmiy-texnika va axborot-tahliliy jurnali, – Toshkent, 2024. – №2 (70).
2. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasi. // O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDo'TAU, 4 (1) /2023. – B. 14-31.
3. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences



4. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.
5. Abjalova M., G'ulomova N. Mualliflik korpuslari: Alisher Navoiy mualliflik korpusi. [Matn]: monografiya / M.A. Abjalova, N.S. G'ulomova. – Navoiy, 2023. – 216 b.
6. G'ulomova N. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallarda uchragan maqollar va iboralar tadqiqi. Zamonaviy ilm va ta'lim istiqbollari mavzusida respublika ko'p tarmoqli ilmiy va amaliy konferensiya. – Termiz, 2023. – B.102-107.
7. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O‘zMU xabarlarini // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.